

TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNING O'RNI

Niyazov Zafar

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10052414>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikning o'rni haqida so'z boradi. Bunda tarixiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik o'rni bo'yicha o'ziga xos jihatlar o'rganildi va tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik, barqarorlik

Kirish qism (Introduction)

Mamlakatimizda barcha yo'nalishlar qatori diniy-ma'rifiy sohada, xususan, din va e'tiqod erkinligi jabhasida, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash borasida juda katta va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekistonda turli millat va elatlar, diniy konfessiya vakillari o'rtasida o'zaro do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ulug' allomalarning boy ilmiy merosini o'rganish kabi yo'nalishlarda ilgari surilgan ezgu tashabbuslar, diniy bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirish, islom dinining tinchlikparvar va ma'rifatga asoslangan ta'limoti xalqaro hamjamiyat tomonidan ham yuksak e'tirof etilmoqda.

Shu bilan birga, yurtimizda fuqarolarning vijdon erkinligi sohasidagi konstitutsion huquqlarini ta'minlash, jamiyatda diniy bag'rikenglik va dinlararo do'stlik-hamkorlik g'oyalarini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism (Main part)

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishi — xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka bag'ishlangani ham mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishini bildiradi [1].

Ma'lumki, 2021 yilning 5 iyul kuni O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi [2]. Ushbu qonun konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash, jamiyatda turli din va e'tiqod vakillari o'rtasida o'zaro bag'rikenglik, hamjihatlikni yanada mustahkamlashda huquqiy asos bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Shundan kelib chiqib, tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan vijdon erkinligi huquqini ta'minlash hamda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiyalar ishlari kengashining tarkibi O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga 9 tadan 17 ta a'zoga kengaydi. Ushbu kengashning yig'ilishlari muntazamlik kasb etib, yiliga ikki marta o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda diniy ta'lim tizimi ham tubdan takomillashtirildi, yangidan-yangi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublikamizda dunyoviy va diniy ilmlarni puxta egallagan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent

islom instituti, “Mir Arab” oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 10 ta oʻrta maxsus islom bilim yurti hamda pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib boryapti.

Islom ilm-fani va madaniyatining boy tarixiy, ilmiy, maʼnaviy merosini har tomonlama oʻrganish, eng muhimi, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish, jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish maqsadida Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Qashqadaryoda Abul Muin Nasafiy majmuasi tashkil etildi.

Natijalar va muhokamalar (Results and discussions)

Oʻzbekistonning ziyorat turizmi borasidagi salohiyatini keng namoyon etish maqsadida bir qator xorijiy davlatlar bilan keng hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyildi. Jumladan, Buyuk Britaniya, Marokash, Vengriya, Saudiya Arabistoni, Qozogʻiston, Tojikiston, Qirgʻiziston, Indoneziya, Yaponiya, Turkiya, Misr, Rossiya, Germaniya, Ispaniya, AQSH, Malayziya, Hindiston, Pokiston singari davlatlarning diniy sohaga masʼul turdosh vazirlik va idoralari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda taʼlim muassasalari bilan 70 dan ortiq hamkorlik memorandumini imzolandi. Respublikamizda turli dinlarga eʼtiqod qiluvchi insonlarning barcha ibodat va marosimlarini emin-erkin bajarib, diniy bayramlarini keng miqyosda nishonlashi uchun ham har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, musulmonlarning ikki Hayit bayrami, nasroniylarning Pasxa va Rojdestvo, yahudiylarning Peysax, Purim va Xanuka bayramlari keng nishonlanmoqda. Ushbu sanalarda konfessiya yetakchilarining bir-birlarini oʻzaro bayram bilan tabriklashi yaxshi anʼanaga aylangan.

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qatʼi nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qoʻyilgan. Ularga oʻz milliy madaniyati, anʼana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan [3].

Maʼlumki, yurtimizda har yili 16 noyabr — Xalqaro bagʻrikenglik kuni munosabati bilan turli diniy konfessiya vakillari, xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlar masʼullari ishtirokida xalqaro konferensiya oʻtkaziladi.

Mazkur sana munosabati bilan turli konferensiya va anjumanlar, davra suhbatlari va uchrashuvlarni oʻz ichiga qamrab olgan “Bagʻrikenglik haftaligi”ning joriy etilgani, shubhasiz, jamiyatda bagʻrikenglik gʻoyalarining mustahkamlanishi, turli millat va elat hamda diniy konfessiya vakillari oʻrtasida oʻzaro doʻstlik va hamjihatlik munosabatlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistondagi diniy erkinlik, dinlararo barqarorlik va diniy bagʻrikenglikni mustahkamlash borasida jiddiy qadamlar tashlangani, bu boradagi ijobiy oʻzgarishlar xalqaro hamjamiyat eʼtiboriga tushdi.

Xalqaro diniy erkinliklar sohasidagi bir qator ekspertlar, soha mutaxassislari mamlakatimizga tashrifi chogʻida diniy erkinlikni taʼminlash, amaldagi normalarni soddalashtirish, radikalizmga qarshi kurashish, qolaversa, maʼrifiy islom gʻoyalarini ilgari surish borasidagi amaliy ishlarga oʻzlari bevosita guvoh boʻlmoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2313 ta diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Shundan 2122 tasi islomiy, 174 ta xristian diniy tashkiloti, 8 ta yahudiy, 6 ta bahoii jamoalari, 1 ta krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddaviylar ibodatxonasi va 1 ta Oʻzbekiston Bibliya jamiyatidir. Shuningdek, qisqa muddat ichida 54 ta masjid yangidan barpo etildi, 17 ta yangi noislomiy diniy tashkilot oʻz faoliyatini boshladi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan turli konfessiya vakillarining o'zaro ahil, inoq va hamjihatlikda yashashlari hamda faoliyat yuritishlari, shubhasiz, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog'lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda [4].

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tushunchalari qadriyat o'laroq, eng avvalo, boy tarixiy-ma'naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat va an'analar asosida milliy o'zligini anglagan, milliy g'urur - iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Xulosa (Conclusion)

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi. Xulosa qilib aytganda, yurtimizda minglab mahkumlarning avf etilishi, fuqarolarning turli ro'yxatlardan chiqarilishi, diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi soddalashtirilishi ekspertlar tomonidan yuqori darajadagi islohotlar sifatida e'tirof etilmoqda. Qolaversa, O'zbekiston diniy sohadagi "Alohida tashvish tug'diradigan davlatlar" ro'yxatidan chiqarilgani ham bu boradagi ishlarning yorqin amaliy ifodasidir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021 y., 03/21/699/0635-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumandagi so'zlagan nutqi. 15.06.2017. Internet manba: [http:// www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2017 yil, 19 sentabr.